

ONAJON XALFA SOBIROVANING XORAZM SAN'ATIDAGI O'RNI

To'xtaxon Xudayberganova

maqsudovna1@gmail.com

O'zDXA Urganch filiali

"Lazgi" bo'limi ilmiy xodimi

Annotatsiya: maqolada "Xalfa" so'zining ma'nosi, XorazmDA xalfachilik bilan nom chiqargan xalfalar va Onajon xalfa Sobirovaning hayot yo'li, Xorazm xalfachilik san'ati va raqsiga qo'shgan xissasi haqida so'z yuritiladi. O'zbekiston xalq artisti Gavxar Rahimovaning Onajon Sobirova haqidagi so'zlari tilga olinadi.

Kalit so'zlar: xalfa, ijrochilik, tarix, paranji, shariat, qo'shiq, raqs, "Lazgi".

РОЛЬ ОНАЖОН ХАЛФА СОБИРОВОЙ В ИСКУССТВЕ ХОРАЗМА

Тохтахон Худайбергано

maksudovna1@gmail.com

UzDXA Ургенчский филиал

Научный сотрудник отдела "Лазги"

Аннотация: в статье рассказывается о значении слова «халфа», халфах, сделавших себе имя в Хорезме, и жизненном пути Онаджон халфа Собировой, ее вкладе в искусство и танец хорезмской халфы. Приводятся слова народной артистки Узбекистана Гавхар Рахимовой об Онажон Собировой.

Ключевые слова: халфа, спектакль, история, чадра, шарият, песня, танец, «лазги».

THE ROLE OF ONAJON KHALFA SOBIROVA IN THE ART OF KHORAZM

Tokhtakhon Khudaiberganova

maksudovna1@gmail.com

UzDXA Urganch branch

Scientific employee of "Lazgi" department

Abstract: the article talks about the meaning of the word "Khalfa", the khalfas who made a name for themselves in Khorezm, and the life path of Onajon Khalfa Sobirova, her contribution to the art and dance of Khorezm khalfa. People's Artist of Uzbekistan Gavkhar Rahimova's words about Onajon Sobirova are mentioned.

Key words: khalfa, performance, history, veil, sharia, song, dance, "Lazgi".

Xorazmda savodxon, gapga chegan, ayni paytda xonandalik qobiliyatiga ega bo'lgan zukko ayollarni "xalfa" deb yuritishadi. Bu atamaga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quydagicha tarif beriladi: "Xalfa – arab tilidan olingan so'z bo'lib, bir-birining ortidan borish, ergashish; o'rin almashish degan ma'nolarni anglatib, to'rt ma'nosi borligi aytiladi: birinchi, Shariat qoidalarini yaxshi biladigan o'qimishli odam; ikkinchi, Eski maktabda o'quvchilarga boshliq qilib tayinlangan, maktabdor domlaga ko'maklashadigan o'quvchi; uchinchi, o'rta asrlar ustaxonalarida hunar o'rganuvchi shogird, kasb-hunar o'rganuvchi shogirdlar boshlig'i; to'tinchi Xorazm vohasida mahalliy og'zaki ijod namunalarini ijro etuvchi ayol"³⁹ degan ma'nolarni anglatadi. Xorazm diyorida "Xalfa" atamasi ikki ma'noda ishlatiladi. Birinchisi, diniy kitoblarni o'qiydigan, marosim va mavludlarda rahnamolik qiladigan otinbibilar ko'zda tutilsa, ikkinchisi, kuy va qo'shiqlar kuylab, ayollarni madaniy va ma'naviy ehtiyojini qondirishga xizmat qiladigan san'atkor ayollar ko'zda tutiladi. Ana shunday xorazmlik "xalfa"lardan biri oddiy xalq orasida "Anash cho'loq" nomi bilan tanilgan Anajon Sobirovadir.

Onajon Sobirova 1885-yilda Xorazm viloyati Xiva tumanida oddiy naqqosh usta oilasida dunyoga kelgan. Dunyo sinovlar va taqdirining beshafqatligi tufayli bolaligida ota-onasidan yetim qolgan Onajon hayot sinovlarini erta totgan, turmush qiyinchiliklariga bardosh bera oladigan dovyurak qiz bo'lib yetishadi. Anajon dastlab Xivadagi eski uslubdagi maktabda ta'lim oladi. Keyinchalik Xivalik Xonimjon xalfaga shogird tushadi. Onajon xalfa haqida R.Yunusov o'zining "Xiva xalfalari" nomli metodik qo'llanmasida "U 16 yoshidan boshlab xalq qo'shiqlarini mohirlik bilan ijro etibgina qolmay, balki soz chalish, raqsga tushishida ham butun Xorazmga nom taratdi"⁴⁰ deb yozadi. Onajon xalfa bolalik chog'laridayoq ustozlari Xonim suvchi va Momojon folbin bilan Xorazmning turli burchaklarida soz chalib, qo'shiq aytib raqsga tushib, oddiy xalqning olqishiga sazovor bo'lgan. Qolaversa, Onajon xalfa Xorazmda birinchilardan bo'lib xotin-qizlar raqsini sahnaga olib chiqqan raqqosadir. Lekin shunga qaramay boy va amaldorlar Anash xalfani xonga ayollarni din va shariyatga qarshi axloqsiz ishqiy qo'shiqlar aytishda ayblashadi. Natijada Xiva xoni Muhammad Rahimxon II tomonidan Anash xalfani va uning ustozlari Xonimjon xalfa, Momojon talqinchini saroyga oldirib, yuz darra urishga hukm qilinadi. Xon devonida faoliyat yurituvchi amaldor Matjon devon Anash xalfaning yoshligini e'tiborga olishni, jazosini yengillashtirishini xondan so'rab, ellik tangaga uning gunohidan o'tishini suraydi. Xon Anash xalfaga faqat diniy kitoblar o'qishga ruxsat berib uning jonini omon saqlaydi. Ma'lumki, o'sha davrda xon Momojon talqinchi va Xonimjon xalfalarni mushuk bilan qopga soldirib, qamchi bilan urishga buyuradi. Qamchi yegan mushuk ularning tanalarini tilka pora qilib tashlaydi, bexush yotgan ayollarni aravada uylariga olib ketishadi. Bu voqea Anash xalfani qo'shiq aytishdan, raqsga tushishdan to'xtatib qo'ymaydi. U Xivadan chiqib

³⁹ "O'zbek tilining izohli lug'ati" II tom. Maskva - 1981

⁴⁰ R.Yunusov Xiva xalfalari-Urganch 2020.100-b.

Turkmanistonga borib, o'z san'atini xotin-qizlar orasida namoyish qilishda davom ettaveradi.

"1910-yilda Muhammad Rahimxon II vafot qilib, taxtga chiqqan Asfandiyorxon o'g'li Temur G'oziyning sunnat to'yiga Xorazmning "Bulbuli go'yosi" deb nom chiqargan Anash xalfani ham chaqirtirgan. Qirq kecha-yu qirq kunduz davom qilgan bu to'yda Anash xalfaning shuhrati butun xonlikka yetgan. Xon to'y tamom bo'lgach unga boshqa hech qayerda qo'shiq aymaslik shartini qo'ygan"⁴¹. Qariyalarning aytishiga qaraganda ana shu to'yda Manoq hokimi Nurjon Botir uni sevib qolib, Anashni o'zi bilan Manoqqa olib ketgan. Nurjon botir homiyligi ostida Anash xalfa To'rtko'l, Shobboz tumanlarida xalqqa xizmat qilib, to'y-ma'rakalarda qatnashgan. Nurjon botir Bahodiriy taxallusi bilan Anash xalfaga bag'ishlab g'azallar yozgan:

Dilbarim ishq bugun qildi mani majnun shoir,
Shul sababli ayladim, dashti biyobon ixtiyor.
Maxvash ahlining so'zini qilma hargiz e'tibor,
Vadayi vasli bilan qilmoqni istar xorizor.
Ishq aro tushdim, qo'lim tut, yo Ali duldulsuvor.

1913-yilda Shommi kal bilan bo'lgan janglardan birida Nurjon Botir halok bo'ladi. Anash xalfa yana homiysiz qoladi. Junaidxon iziga tushib, safdoshi Omon xalfa o'ldirgach, uch yil yashirincha birovlarining uyida xizmat qilib, kun kechirgan. Sho'rolar davrida davlat tepasiga chiqib olgan amaldorlar Anash xalfaning san'atini cheklab, uning sahnaga chiqishiga yo'l bermay, qamoqqa tashlashadi. O'g'li G'oyibjonni o'ldirib, uyini talab, musodara qilishadi. Anajon xalfaning qamoqdaligidan xabar topgan xivalik sozandalar rus vakillariga shikoyat qilishadi. Shu tariqa Anajon xalfa qamoqdan ozod qilinib, bir necha yil Xiva teatri sahnasida yakka solist, raqqosa bo'lib, xotin-qizlar orasida birinchilardan bo'lib, paranjini tashlab, o'zi she'r yozib, kuy bastalab, ijodning yangi cho'qqilarini egallaydi. Shu davrda yozilgan qo'shiqlaridan "Paranji", "Kolxozchi qiz", "Kolxozchi qadrdonlar", "Sizniki" kabi qo'shiqlar keng omma orasida tarqaladi. Shoir Bolta Davletov: "U davrda ham, bu davrda ham Anash xalfa singari Xorazm "Lazgi"sini qoyil qilgan raqqosani bilmayman",- deb uning raqs san'atiga yuksak baho bergan.

Anash xalfaning shu davrdagi she'rlari olov bilan teng, xalqni yangilik sari chorlagan:

Paranji tashlab, palto olaman,
Xotin-qizlar majlisiga boraman,
Baxti kulib turgan bir qiz bolaman,
Men tashladim endi bitsin paranji.
Chachvon bilan o'tgan ketsin paranji,
Endi mushtumzo'rning davroni ketdi.
Paranjilar borsa kelmasga ketdi.
Men tashldim endi ketsin paranji,

⁴¹ S.Sobirova, X.Solayev Xiva bulbullari-Xiva 2000-yi.71-b.

Chachvon bilan birga o'tga ketsin paraji.

Sho'rolar davrida Anash xalfa xotin-qizlar komiteti raisi bo'lib xizmat qildi. Anajon xalfa Xorazmda birinchi bo'lib xotin-qizlar raqsini sahnaga olib chiqdi. U "1922-yildan boshlab Xiva teatri gruppasida qator raqslar bilan chiqishlar qiladi va xotin-qizlarni ham o'rgata boshladi. Shu davrlardagi keksalarni aytishicha "Lazgi" raqsini Onajon xalfadek o'ynaydigan san'atkor hali Xorazmda yetishgan ekan. 1939-yili O'zbekiston xalq artisti Gavharxonim Rahimova tashabbusi bilan Xorazmlik xotin-qizlardan iborat garmonchi qizlar guruhi tuziladi"⁴². Uning tarkibiga Anajon xalfa Sobirova, Soraxon Allaberganova, Roviya Atajonova, Reymajon Hakimova O'g'iljon Masharipova, Pashshajon Masharipovalarni taklif qilgan. Bu ansamblda tez orada Respublika viloyatlari bo'ylab qilgan gastrollarida keng ommaga tanildi. Bu haqida O'zbekiston xalq artisti Gavhar Rahimova Anajon xalfani o'ziga ustoz deb bilgan va "Qutlug' yo'lda" nomli kitobida shunday yozadi: "Xorazm garmonchilar guruhini tuzish haqidagi xabar bilan Anajonbiyi menga uchrashdi. Bu ayol o'zining xushchaqchaq fe'li, xotirjamligi va zukkoligi bilan san'atkorlar guruhini tuzishda menga juda katta yordam berdi. Anajonbiyi har qanday qiyinchiliklar oldida dovdirab qolmaydigan, matonatli ayol edi. U o'z fe'l-atvori bilan meni ham qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatdi. Shu yillarda Anajon xalfa Saroxon Allaberganova, Roviya Otajonova, Poshshajon Matchanova, O'g'iljon Masharipova, Reyma Hakimova kabi shogirdlar yetishtirdi".⁴³

Xorazmda Anash xalfa deb nom chiqargan ulug' san'atkor Anajon xalfa Sobirova 1952-yida Xiva shahrida vafot etdi. 1987-yil 4-fevralda Xorazm san'ati jamoatchiligi va O'zbekiston xalq artisti Gavhar Rahimova tashabbusi bilan Anajon xalfaning Shohimardon qabristonida yo'qolib ketgan qabri qaytadan tiklandi. Uning jo'shqin san'ati, o'lmas qo'shiqlari xalqimiz qalbida hamisha ardoqlanishi tabiiydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbek tilining izohli lug'ati" II tom. Maskva – 1981.
2. T.Mirzayev "O'zbek folklori ocherklari" III tomlik. Toshkent – 1988.
3. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li Muhammad Yusuf Devonzoda "Xorazm musiqiy tarixchasi" Toshkent – 1999.
4. S.Sobirova, X.Solayev "Xiva bulbullari" Xiva – 2000.71-b.
5. R.Yunusov "Xiva xalfalari" Urganch – 2020.100-b.

⁴² R.Yunusov Xiva xalfalari-Urganch 2020.100-b.

⁴³ G.Rahimova "Qutlug' yo'lda" Toshkent 1973.